



STATE OF AGRICULTURE IN THE FERGHANA ECONOMIC REGION IN THE 40-80S OF THE XX CENTURY

Gullola Yusupova

PhD, Associate Professor

Kokand State Pedagogical Institute

Kokand, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Uzbek SSR, Fergana, economic region, agriculture, irrigation, cotton growing, food, melon growing, raw materials, national economy.

Received: 19.12.24

Accepted: 21.12.24

Published: 23.12.24

Abstract: This article analyzes the policy of the central government in the 40-80s of the twentieth century, aimed at the further development of agriculture in all regions of the Uzbek SSR, including the Fergana Valley, in order to make a profit in their own interests. Also, through the sources and literature of the period, issues such as the development of new lands in the Fergana economic region, the increase in irrigation structures on agricultural lands, the expansion of cotton sown areas in the region and its consequences, as well as the export of agricultural products were revealed.

XX ASRNING 40–80-YILLARIDA FARG‘ONA IQTISODIY RAYONIDA QISHLOQ XO‘JALIGINING AHVOLI

Gullola Yusupova

PhD, dotsent v.b.

Qo‘qon davlat pedagogika instituti

Qo‘qon, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston SSR, Farg‘ona, iqtisodiy rayon, qishloq xo‘jaligi, irrigatsiya, paxtachilik, sug‘orish, oziq-ovqat, polizchilik, xomashyo, xalq xo‘jaligi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asrning 40–80-yillarida markaziy xukumatni O‘zbekiston SSRning barcha hududlarida, shu jumladan, Farg‘ona vodiysida ham o‘z manfaati yo‘lida foyda olish uchun qishloq xo‘jaligini yanada rivojlantirishga qaratilgan siyosati tahlilga tortilgan. Shuningdek, bu davrda hukumatning Farg‘ona iqtisodiy rayonida yangi yerlarni o‘zlashtirish, dehqonchilik

qilinadigan yerlarda irrigatsiya inshoatlarini ko‘paytirish, hududda paxta ekiladigan maydonlarining kengaytirilishi va uning oqibatlari hamda qishloq jo‘jaligida yetishtirilgan mahsulotlarni markaz tomonidan tashib ketilishi kabi masalalar davr manbalari va adabiyotlar orqali ochib berilgan.

СОСТОЯНИЕ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА В ФЕРГАНСКОМ ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЙОНЕ В 40-80-Х ГОДАХ XX ВЕКА

Гуллопа Юсупова

Кандидат медицинских наук, доцент

Коканский государственный педагогический институт

Кокан, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Узбекская ССР, Ферганский экономический район, сельское хозяйство, ирригация, хлопководство, орошение, продовольствие, бахчеводство, сырье, народное хозяйство.

Аннотация: В данной статье анализируется политика центрального правительства в 40-80-е годы XX века, направленная на дальнейшее развитие сельского хозяйства во всех регионах Узбекской ССР, в том числе в Ферганской долине, с целью получения прибыли в своих интересах. Также через источники и литературу периода были раскрыты такие вопросы, как освоение новых земель в Ферганском экономическом районе, увеличение ирригационных сооружений на земледельческих землях, расширение посевных площадей хлопчатника в регионе и его последствия, а также вывоз центра сельскохозяйственной продукции.

KIRISH. O‘zbekiston SSRda ikkinchi jahon urushida so‘ng, markazning topshirig‘iga binoan respublikadagi barcha siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarni o‘z manfaatlari yo‘lida tinch qurilish ishlariga o‘tilishi munosabati bilan birga, respublikaning barcha hududlarida qishloq xo‘jaligini ham yanada rivojlantirish masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Natijada respublikaning boshqa hududlarida bo‘lgani singari Farg‘ona vodiysida ham yangi yerkarni o‘zlashtirish ishlariga kirishildi. Markaziy hukumat boshchiligidagi KPSS syezdlari va plenumlarida yangi yerkarni o‘zlashtirish vazifalari, jumladan, besh yillik rejallarda ham yerkarni muntazam o‘zlashtirib borish ishlalarini jadallashtirish belgilab berilaverdi[9. – 635 b.].

ASOSIY QISM.

O‘zbekiston SSRning iqtisodiy jihatdan salmoqli potensialga ega bo‘lgan Farg‘ona vodiysida markaz tomonidan belgilab berilgan 1946–1950-yillarga mo‘ljallangan besh yillik rejallarda qishloq xo‘jaligining asosiy vazifasi sifatida sug‘oriladigan dehqonchilik rayonlarida

irrigatsiya-melioratsiya ishlarini olib borish qat’iy belgilandi. Bu vazifalarning ijrosini ta’minlash jarayonida ilgari boshlab qo‘yilgan Sarisuy, Bog‘dod va So‘z-Isfara kollektorlari tizimining qurilishini tugatish va Farg‘ona viloyatining rayonlaridagi boshqa kollektorlar va irrgiatsiya shoxobchalarini yangidan qurish bo‘yicha ishlar jadallashtirildi. Masalan, o‘n ikkinchi besh yillik rejalarida paxtachilikni rivojlantirish uchun ko‘proq kapital mablag‘ ajratish, mavjud bo‘lgan ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish, hosildorlikni oshirish, tola sifatini yaxshilash, ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlarini keng qo‘llash asosida paxta yetishtirish belgilandi.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, paxta qimmatbaho xomashyo bo‘lib, undan 300 ga yaqin turli xil mahsulotlar ishlab chiqarilgan. Har 100 kg paxtadan o‘rtta hisobda 30–35 kg sanoat uchun zarur bo‘lgan tola olingan. Bu tolani to‘qimachilik korxonalarida ishslash natijasida 3000 metr atrofida to‘qima olingan. 100 kg paxtadan 6–8 kg lint, 11–12 kg yog‘, 2,5 kg sovun va boshqa mahsulotlar olingan[1. – 3 b.].

1950-yillarda “Ferganavodstroy”, “Andijanvodstroy”, “Namanganvodstroy” trestlari tashkil etildi. Birgina “Ferganavodstroy” va yangi tuzilgan kolxozlararo kengash 1953-yildan – 1973-yilga qadar 50 ming gektardan ortiq yangi yerlarni o‘zlashtirib, bu yerdarda 3 ta sovxozi, 5 ta kolxoz tashkil etishda ishtirok etdi[15. – 95 b.].

Farg‘ona iqtisodiy rayoniga kiruvchi hududlardagi viloyatlarning qulay iqlimi, mehnat resurslarining yetarli darajada ekanligi yerlarni o‘zlashtirish ishlarini yanada tezlashtirishga imkon bergenligi sababli 1953-yil 20-oktabrdagi O‘zbekiston KP MQ va O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining “O‘zbekiston SSRda sug‘oriladigan yerlarni kengaytirish va suv xo‘jaligining bundan keyingi rivojlanishi chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, SSSR Ministrlar Sovetining “O‘zbekiston SSRda 1954–1958-yillarda paxtachilikni yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi qarori (1954-yil 9-fevral), O‘zbekiston SSR Qishloq xo‘jaligi vazirligining “Markaziy Farg‘ona yerlarini sug‘orish va o‘zlashtirish ishlarini kuchaytirish to‘g‘risida”gi buyrug‘i, O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining “1958-yilning hosili uchun yangi va qo‘riq (partov) yerlarni o‘zlashtirish to‘g‘risida”gi qarori (1958-yil 18-mart), O‘zbekiston KP MQ va O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining “Markaziy Farg‘onadagi yangi va qo‘riq yerlarni sug‘orish va o‘zlashtirish bo‘yicha ishlarni kuchaytirish to‘g‘risida”gi qarori (1958-yil 21-aprel), O‘zbekiston KP MQ va O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining “1959-yilda Markaziy Farg‘ona yerlarini sug‘orish va o‘zlashtirish bo‘yicha qurilish ishi dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori (1959-yil 23-yanvar), O‘zbekiston KP MQ va O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining “1959–1965-yillarda Markaziy Farg‘onada qo‘riq va bo‘z yerlarni sug‘orish hamda o‘zlashtirish to‘g‘risida”gi qarori (1959-yil 3 avgust), O‘zbekiston SSR Suv xo‘jaligi vazirligining “1960-yilda Markaziy Farg‘ona yerlarini sug‘orish va o‘zlashtirish bo‘yicha qurilish ishi dasturi

to‘g‘risida”gi buyrug‘i (1960-yil 18-mart), O‘zbekiston KP MQ va O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining “Markaziy Farg‘onada qo‘riq yarlarni o‘zlashtirishning borishi to‘g‘risida”gi (1961-yil 12-may) kabi qaror va farmoyishlar asosida 1963-yilgacha Markaziy Farg‘onada 60 ming hektar qo‘riq yer o‘zlashtirildi[8. – 173 b.].

Bu boradagi tadbirlar, tabiiyki, melioratsiya va irrigatsiya ishlariga ham ta’sir etdi. Farg‘ona vodiysidagi tashkil etilgan “Ferganavodstroy”, “Andijanvodstroy” va “Namanganvodstroy” trestlari hamda viloyatlarning sug‘orish boshqarmalari 19 yil (1953–1972-yillar) mobaynida 1634039 m³ hajmda yer qazish hamda beton va temir-beton ishlarini amalga oshirdi, shundan 650526 m³ Farg‘ona, 833821 m³ Andijon, 149692 m³ Namangan viloyatiga to‘g‘ri keldi[7. – 173 b.]. Ayni paytda qo‘riq va bo‘z yarlarni o‘zlashtirish uchun davlat budgetidan hamda jamoa xo‘jaliklarning bo‘linmas jamg‘armasidan kapital mablag‘lar ajratish yildan-yilga ortib bordi. Yangi ochilgan hududlarda tuman va posyolkalar, turarjoy binolari qad ko‘tardi. Biroq, bu hududlardagi yangi yarlarning noilmiy asoslarda o‘zlashtirilishi va ularning o‘rnida yirik paxta maydonlarining barpo etilishi, paxtadan hosil olishni ko‘paytirish uchun zaharli kimyoviy moddalardan foydalanilishi ekologiya va atrof-muhitning buzilishiga olib keldi. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, respublika qishloq xo‘jaligi mahsulotining $\frac{3}{4}$ qismi dehqonchilikka to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, qolgan qismi chorvachilikka to‘g‘ri keldi[2. – 14 b.].

Eng achinarli tomoni shundaki, ko‘plab paxtachilikka ixtisoslashgan tuman va davlat xo‘jaliklarida paxta yetishtirishning ortishi vodiya ham markazning paxta yakkahokimligi amaliyotini yanada kuchaytirib yubordi. Paxta – respublika qishloq xo‘jaligining asosiy ekini bo‘lib, paxta yetishtirish bo‘yicha O‘zbekiston mamlakatda birinchi o‘rinda turib, SSSR paxtasining 64,1 foizini yetkazib bergen. Shuningdek, tarixchi olimlarning yozishicha, bo‘z yarlarni o‘zlashtirish sohaning ekstensiv rivojlanish modelining yaqqol ifodasi bo‘lib, unga ilmiy jihatdan chuqur yondashilmadi. SSSR siyosiy rahbariyati tomonidan paxta ekiladigan maydonlarning muttasil ravishda kengaytirilishi, sug‘orish ehtiyojlari uchun daryolarda ommaviy ravishda suv omborlarining qurilishi natijasida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan ekologik halokatlarga ham bepisand munosabatda bo‘linganligi mavjud ahvolni yanada chuqurlashtirdi[14. – 132 b.].

Tadqiq etilayotgan yillarda sovet davlatining iqtisodiy rayonlashtirish siyosati davom etib kelayotgan bo‘lib, bu jarayonda qishloq xo‘jaligida ham islohotlar o‘tkazildi. KPSS MQ va SSSR Ministrlar Sovetining sovxozlarni butunlay xo‘jalik hisobiga o‘tkazish bo‘yicha olib borgan tadbirlari natijasida 1967-yil 1-iyulga kelib O‘zbekistonning o‘zida sovxozlarning uncha katta bo‘lmagan guruhi xo‘jalik hisobiga o‘tkazildi. Bu jarayonda 1957–1960-yillarda respublika bo‘yicha iqtisodiy o‘sishi past bo‘lgan xo‘jaliklar hisobidan 84 ta katta ixtisoslashgan sovxozlar tashkil etildi. Asosan, rayonning Qo‘qon zonasida joylashgan xo‘jaliklarda yarlarning meliorativ

holati yaxshi emasligi, sho‘r yuvish ishlari bir yilda bir marotaba sifatsiz holda amalga oshirilishi kabi muammolar yetishtiriladigan mahsulot sifati pasayib ketishiga sabab bo‘ldi. Masalan, “Nayman” sovxoziда yerlarning sho‘rlanish holatlari boshqa hududlarga nisbatan juda yuqori bo‘lgan[5. – S. 66.].

Shu o‘rinda qayd etish kerakki, yangi tashkil etilgan sovxozlardagi hosildorlikni oshirish maqsadida ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratilib, muntazam ravishda davlat tomonidan mablag‘ ajratib turildi. 1963-yilda bu tashkil etilgan sovxozlarning natijadorligi O‘rta Osiyo qishloq xo‘jaligi instituti xodimlarining yig‘ilishida ko‘rib chiqildi. Yig‘ilishda ta’kidlanishicha, bu tashkil etilgan sovxozi 74 ming tonna paxta topshirishga muvaffaq bo‘lganlar. Xo‘jalik hisobiga o‘tgan sovxozlarda ishlab chiqarishga ajratilgan mablag‘ning aniq hisobi olib borilishi, qishloq xo‘jaligining barcha tarmoqlarini birdek rivojlanishi ta’milanishi lozim edi. Biroq, 1960-yillarning o‘zida respublikada 71 ta sovxozi 13 mln rubl bilan yilni yakunlagan bo‘lsa, 50 ta xo‘jalik belgilangan rejani 8,6 mln rublga kam bajardi va sezilardi darajada moliyaviy muammoga uchradi. Farg‘onada ham uzoq yillarda davomida zarar hisobiga ishlagan sovxozi mavjud bo‘lib, birgina “So‘x” sovxozi belgilangan 304000 ming rubl daromad o‘rniga yilni bir millondan ortiq zarar bilan yakunladi[6. – S. 64.].

Bunday kamchiliklar boshqa hududlarga ham xos bo‘lib, 1967-yilda ishlab chiqarishni rivojlantirish zahiralarini to‘g‘ri ishga sola olmaslik oqibatida respublikadagi mavjud sovxozi davlatga topshirishi lozim bo‘lgan mahsulotlarni 7 mln rubl kam miqdorda topshirgan edi. Bunday kamchiliklarning asosiy sabablaridan biri xo‘jaliklar ma’muriy-boshqaruvi ishlariga ortiqcha mablag‘ sarflaganliklari edi. Statistik ma’lumotlarda keltirilishicha, 1967-yilda sovxozlarning oylik maosh fondidan 544000 rubl sarflangan. Bu kamchiliklarning oldini olish uchun sovxozlarni xo‘jalik hisobiga o‘tkazish, banklardan qisqa va uzoq muddatli kreditlar olishni yo‘lga qo‘yish lozimligi belgilandi. Kredit olgan sovxozi qishloq xo‘jaligidagi barcha tarmoqlarni rivojlantirishga xizmat qilishi kerak bo‘lgan. Farg‘ona iqtisodiy rayoniga kiruvchi Andijon viloyatidagi “Savay” sovxozi ham ana shunday xo‘jalik hisobiga o‘tkazildi. 1967-yil yakunlariga ko‘ra bu sovxozi bankdan olgan kreditlarini yopib, rejadan tashqari 514 ming rubllik qo‘sishma mahsulot ham yetishtirdi[6. – S. 65.].

Tahlil etilayotgan yillarda Farg‘ona iqtisodiy rayonidan tashib ketilayotgan mahsulotlarning ko‘p qismini paxta xomashyosi tashkil etgan edi. Paxta tolasi markazdagagi, G‘arbiy – Shimoldagi, Sibirdagi, Ukraina, Volgabo‘yi, Qozog‘iston va boshqa rayonlardagi to‘qimachilik fabrikalariga jo‘natildi. Ko‘p miqdordagi o‘simlik yog‘i, meva, shoyi gazlamalar, ozokerit, viskoza, kirza, mashinalarni harakatga keltiradigan tasmalar, dizellar, nasoslar tashib ketildi[5. – S. 66.].

Paxtachilik sohasida ham belgilab berilgan rejaning ketidan quvish, qo'shib yozish kabi illatlarni keltirib chiqardi. Ayni paytda kishilarda moddiy manfaatdorlikning yo'qligi o'z ishiga mas'uliyatsizlik bilan yondashish holatlarini ham kuchaytirib yubordi. O'zbekiston paxta dalalari, shuningdek, Farg'ona vodiysiagi paxta ekidigan xo'jaliklarning barchasida kamchiliklar juda ko'plab uchrab turgan edi. Respublika sovxoziylarida bir sentner paxta yetishtirish uchun – 39, bir sentner g'alla yetishtirish uchun 6,8 kishi – soat, ya'ni 6 baravar kam mehnat sarflangani holda[10. – S. 10.], aholi tez o'sib borayotgan respublikada ishchi kuchidan foydalanishning asosiy yo'llaridan biri paxtachilikni rivojlantirish bo'ldi. Biroq, kishilardagi mas'uliyatlsizlik, o'z mehnatidan moddiy manfaatdorlik ko'rmaslik, ketma-ket berilgan rejalar, tabiiyki, rivojlanishning asosiy to'siqlaridan biri bo'lib qolaverdi.

Paxta ekiladigan yerlarda dala ishlari tezda bajarilsa-da, ishning sifatiga to'liq e'tibor berilmagan, yer haydalganda dalalar o'tgan yilgi g'o'zapoyalardan, ba'zi joylarda esa toshlardan tozalanmagan. Masalan, Farg'ona vodiysi Vodil rayonidagi Oxunboboyev nomli, Hamza Xakimzoda nomli, Farg'ona rayonidagi "Yosh leninchi" nomli kolxozlarda chigit ekish vaqtida qatorlarning tekis bo'lishiga e'tibor berilmagan. Toshloq, Oltiariq, Chinobod rayonlarida, shuningdek, boshqa bir qancha joylarda yerlarni darhol yumshatish, kultivatsiya qilish, ya'ni havo-harorat rejimini yaxshilash talab qilinsa-da, traktorda kultivatsiya qilish ishlari juda sekin olib borilgan. Andijon va Namangan viloyatlarida yagana ishlari o'z vaqtida olib borilmagan[13.]. Sonning ketidan quvish faqat berilgan rejani bajarish yo'lidagi harakatlar natijasida ekilgan chigitlarga o'z vaqtida ham qaralmagan[12].

Berilgan rejani bajarishning qat'iy talabi, dabdababozlik, balandparvoz shiorlar mahsulotning sifati emas, sonining ketidan quvishga sharoit yaratdi. Masalan, 1951-yilda Namangan viloyatining barcha tumanlari va kolxozlarida chigitni hamma yerda to'la undirib olib har hektar yerda g'o'za tuplari to'la bo'lishini ta'minlash, yaganalash, birinchi kultivatsiya va birinchi chopiqni yuksak agrotexnika qoidalariga amal qilib 1 may – Mehnatkashlarning xalqaro bayramigacha tugallash majburiyatini oldilar. Bu vazifalarni bajarish uchun Namangan viloyatida quyidagi tadbirlar amalga oshirildi:

- traktorlarning 60 foiziga kultivatorlar o'rnatilib, g'o'za qatorlari ishlashga kirishilgan, bu majburiyat 18 mayda qabul qilingan bo'lsa, kultivatorlarning o'rnatish ishlari 20 maygacha tugallanishi belgilandi;
- dalachilik va traktor brigadalari qishloq xo'jalik texnikasidan foydalanishni yaxshilash maqsadida g'o'za parvarishi yuzasidan o'zaro majburiyat oldilar, shuningdek, kolxozchilar ham normalarni oshirib bajarish maqsadida "majburiyat" oldilar;

- har bir kolxoz va dalachilik brigadasi tuproqning xususiyatiga, suv bilan ta'minlash va boshqa omillarga qarab g‘o‘za tuplari qalinligi yuzasidan olingan rejani bajarishni majburiyat qilib oldi;
- har bir kolxozdagi o‘g‘it sepish mashinasini 20 aprelgacha ta’mirdan chiqarib, g‘o‘zalarni oziqlantirishni avvalgi yildan ertaroq boshlash, g‘o‘zani sifatli parvarish qilish maqsadida viloyatdagi barcha MTSlar va kolxozlarning majburiyati belgilab qo‘yildi[11].

Tadqiq etilayotgan yillarda paxtachilikni yanada rivojlantirish maqsadida butun respublikada suv inshootlari qurish ishlari ham jadallashtirildi. Buning uchun 1971–1975-yillarda sug‘orish ishlariga 3 mlrd 700 mln rubl ajratildi. Biroq, respublikadagi sug‘orish tarmoqlaridan 16 mlrd kub suv yerosti sizot suvlariga qo‘shilib ketdi[4. – S. 29]. Hatto yerosti suvlaridan ham paxtachilikda foydalanish maqsadida gidrogeologlar hisob-kitob o‘tkazib, ularning ta’kidlashicha, yerosti suvlarining hajmi 1970-yillarda Farg‘ona vodiysida m3 sekundni, Toshkent viloyatida 135 m3 sekund, Quyi Amudaryoda 315 m3 sekundni tashkil etgan. Ko‘rinib turibdiki, Farg‘ona vodiysi yerosti suvlari serobligi bilan alohida ajralib turgan va ularni ham kelajakda paxtachilik uchun ishlatish belgilangan[5. – 16-17 b.].

Bu holat suvdan foydalanish sur‘atini pasaytirib, ko‘plab yerlarning meliorativ holati yomonlashib borishiga ham sabab bo‘ldi. Natijada kanallarni, ariqlarni betonlash ishlari olib borildi. Biroq, 1970-yilda ayrim hududlarda ekinlarni sug‘orish uchun suvlarini to‘plash ishlari ham bajarilmay qolavergan. Bu Sirdaryo, Buxoro, Samarcand viloyatlari bilan bir qatorda Farg‘ona iqtisodiy rayoniga kiruvchi Farg‘ona, Andijon, Namangan viloyatlarida ham uchragan. Bunday holatlar respublika bo‘yicha sug‘oriladigan paxta maydonlari qisqarishiga olib keldi. Natijada 1970 yillarda rejadagi 11,348 ming hektar yerni sug‘orish o‘rniga 9,554 ming hektar yer sug‘orilgan. Bu holatlar, tabiiyki, qishloq xo‘jaligida sug‘orish ishlarida ham muammolar yetilib kuchayib ketganligidan dalolat berar edi. Respublika bo‘yicha kolxozlarda mashina terimi hissasi 23 foizga teng bo‘lgan bo‘lsa, Buxoro va Farg‘ona viloyatlarida umumiy hosilning 93 foizi qo‘lda terilgan.

Sovet xalq xo‘jaligidagi xo‘jasizlik, reja ketidan quvish isrofgarchiliklarni shundan ham bilsa bo‘lardiki, chorvachilik sohasida O‘zbekistonning asosiy ko‘rsatkichi qorako‘lchilik bo‘lsa ham O‘zbekiston KP MQ “Almashlab ekishni joriy etish asosida chorvachilikning mustahkam ozuqa bazasini vujudga keltirish sohasida respublika partiya tashkilotlarining vazifalari to‘g‘risida”gi qarorida 1975-yilda senaj tayyorlashni har bir sigir hisobiga kamida 3 tonnaga yetkazishni, bedadan vitaminli talqon tayyorlashni 100 ming tonnaga, dag‘al hashak preslashni 1,3 mln tonnaga, ho‘li silkitilgan ko‘k pichanni qirqib tayyorlashni 1,750 ming tonnaga, pichanni faol ventilyatsiya usulida quritishni 100 ming tonnaga yetkazish belgilandi. Bu orqali, asosan, chorva mollarini ko‘paytirish vazifasi nazarda tutildi. Rejani bajarishning qat’iy talabi,

maydonlarni sug‘orishga yetarli suvning yo‘qligi, dorilash kompaniyalarining kuchiligi kabi holatlar bo‘lib turgan vaqtda chorvachilikni rivojlantirish bilan paxta maydonlariga mahalliy o‘g‘it yetkazib berish rejalari tuzila boshlandi. Vaholanki, har bir qoramoldan yiliga 8–10 tonna o‘g‘it chiqsa, har bir gektar maydonga 12 tonna o‘g‘it sarflangan. Respublikaning Sirdaryo, Andijon, Namangan viloyatlarida bo‘lsa qoramollar yetishmagan, bu viloyatlarda har gektar paxta maydoniga 6, 9, 11 tonnadan mahalliy o‘g‘it to‘g‘ri kelgan. Bu masalani hal etish uchun esa 1970-yilda 204 mingtadan 383 mingtagacha, Andijon viloyatida 210 mingtadan 275 mingtagacha, Namangan viloyatida 185,4 mingtadan 198 mingtagacha ko‘paytirish lozimligi hisoblab chiqilgan[10. – S. 10.]. Bunda, avvalo, aholisi zich joylashgan hududlarda chorvachilikni yanada rivojlantirishning imkoniy yo‘qligi, kishilarda mas’uliyatsizlik, o‘z ishiga e’tiborsizlik kabi holatlarning kuchligigi e’tiborga olinmadi. Aslini olganda, 1970-yillarning o‘zida chorvachilik sohasida ahvol yaxshi bo‘lmagan. Juda ko‘plab ishlar qo‘lda bajarilgan. Bu tarmoqda eng ko‘p mexanizatsiyalashtirilgan soha sut sog‘ish bo‘lib, u ham 26 foizni tashkil etgan. Hatto cho‘chqachilik fermalarida sug‘orish, oziq tarqatish, xonalarni tozalash ishlari qo‘lda bajarilgan. Yangi o‘zlashtirilgan yerlarda tashkil etilgan xo‘jaliklarda esa ahvol bundan ham og‘ir bo‘lgan.

Rejalar, ilmiy farazlar ishlab chiqilgani bilan yillar o‘tishi davomida ekinlarga mahalliy o‘g‘it solish masalasi barcha viloyatlarda orqada qolaverdi. Belgilangan vazifalarni bajarish, uning ilmiy loyihamini ishlab chiqish bilan o‘tib ketgan vaqtlar oralig‘ida 1970 yilning noyabr oyiga kelib 948,2 ming gektar yerda sug‘orish shohobchalarini yaxshilash zarurati kelib chiqdi, 787,2 ming gektar yerda zovurlarni yaxshilash va qurish, 989,3 ming gektarda kapital tekkislash ishlarini o‘tkazish belgilandi. Respublika bo‘yicha 1 mln 400 ming gektarga yaqin yerning meliorativ holatini yaxshilash zarurati yuzaga keldi. Buning oqibatida yiliga 6–7 sentnerdan paxta kam hosil olinib, respublikada sug‘oriladigan yerlarning 37 foizdan ortig‘i sho‘rlandi, sho‘rlanish tufayli respublika bo‘yicha yiliga 400–500 ming tonna kam hosil olindi[4. – S. 28.].

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, Ikkinchi jahon urushi tugaganidan so‘ng O‘zbekiston xalq xo‘jaligining ham tinch qurilish yo‘liga o‘tkazilishi jarayonida qishloq xo‘jaligini yanada rivojlantirish masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Natijada respublikaning boshqa hududlari singari Farg‘ona vodiysida ham yangi yerlarni o‘zlashtirish ishlari jadallashtirildi. Yangi ochilgan hududlarda tuman va posyolkalar, turarjoy binolari qurildi. Biroq, bu hududlardagi yangi yerlarning noilmiy asoslarda o‘zlashtirilishi va ularning o‘rnida yirik paxta maydonlarining barpo etilishi, paxtadan hosil olishni ko‘paytirish uchun zaharli kimyoiy moddalardan foydalanilishi ekologiya va atrof-muhitning buzilishiga olib keldi. Shuningdek, bu davrda Farg‘ona iqtisodiy rayonidan tashib ketilgan mahsulotlarning katta qismini paxta

xomashyosi tashkil etgan edi. Paxta tolasi ittifoqning ko‘plab rayonlaridagi to‘qimachilik fabrikalariga jo‘natildi. Ko‘p miqdordagi o‘simlik yog‘i, meva, shoyi gazlamalar, ozokerit, viskoza, kirza, mashinalarni harakatga keltiradigan tasmalar, dizellar, nasoslar tashib ketildi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Абдуллаев О., Махмудов Н., Қозоков О. Ўзбекистонда пахта тозалаш саноатининг ривожланиши. – Тошкент: Ўзбекистон, 1986. – 3 б.
2. Ақрамов З. Ўзбекистоннинг хўжалиги. – Тошкент: Ўзбекистон ССР билим жамияти, 1977. – 14-17 б.
3. Бедринцев К., Кравец Ф. Фарғона иқтисодий маъмурий райони // Қизил Ўзбекистон. 1957 йил 8 июнь.
4. Берикбаев Р.Б. Совершенствование размещения и развития производительных сил Узбекистана. – Ташкент: Изд. ЦК КП Узбекистана, 1971. – С. 28-29.
5. Вакс П., Каюмов Ф. Совхозы Ферганы на подъеме // Коммунист Узбекистана. 12 декабря 1963 года. – С. 66.
6. Гафуров Х. Совхозы – на полный хозяйственный расчет // Экономика и жизнь. 12 декабря 1967 года. – С. 64-65.
7. Гофуров А. Ирригация ва мелиорацияни ривожлантиришнинг иқтисодий проблемалари... – 173 б.
8. Комилов О. Ўзбекистонда ирригация тизими ривожланиши ва унинг оқибатлари (1951–1990 йй.): Тарих фан. докт. (DsC) дисс. – Андижон,. 2017. – 173 б.
9. КПСС съездлари, конференциялари ва Марказий Комитет Пленумларининг резолюция ва қарорлари. III қисм. – Тошкент: Ўздавнашр, 1954. – 635 б.
10. Михеева В.В., Анаркулов Д.Ш. Трудовые ресурсы и размещение производительных сил. – Ташкент: Узбекистан, 1987. – С. 10.
11. Наманган облости ғўзанинг биринчи парваришини 1-май байрамигача тамомлади // Қизил Ўзбекистон. 1951 йил 18 апрель.
12. Озарбайжон пахтакорларининг вакиллари Фарғона далаларида // Қизил Ўзбекистон. 1951 йил 20 апрель.
13. Ўзбек пахтакорларига қардошлиқ маслаҳати. Озарбайжон делегациясининг тассуроти // Қизил Ўзбекистон. 1951 йил 22 апрель.
14. Ўзбекистон тарихи (1917–1991 йиллар). Иккинчи китоб. 1939–1991 йиллар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – 132 б.
15. Фарғона облости (Тарихий-иқтисодий справочник). – Тошкент: Ўзбекистон, 1974. – 95 б.